



## LOGOPEDIK AMALIYOT ORQALI DIZARTRIYANI KAMAYTIRISH METODOLOGIYASI

Latifova Shahlo Shodiyorovna

Oqdaryo tumani 1-sonli mактабning logopedi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dizartriyani bartaraf etish usullari, uni bartaraf etish bo‘yicha olib borish mumkin bo‘lgan logopedik ta’sir o`tkazish texnologiyasi muhokama etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Dizartriy, logoped, metod, artikulyatsiya, tovush, talaffuz.

### KIRISH

Dizartriyani bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan logopedik ta’sir tizimi kompleks ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Asosiy diqqat bolada nutkning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlari qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham hisobga olinadi<sup>1</sup>.

Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg‘ulotlar sekin-asta artikulyatsion apparat, apparat motorikasini normallashtiradi, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi, artikulyatsiya a’zolarida ixtiyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o‘tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonematik eshituvni to‘la qonli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari AG. Ippalitova, O.V. Pravdina, V.V. Ippalitova, Ye.M. Mastyukova, G.V. Chirkina, I.I. Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

**Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat<sup>2</sup>:**

- 1 – tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish, ya’ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qo‘yish va mustahkamlash;
- 2 – fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish;
- 3 – nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- 4 – paydo bo‘lgan nutqning umumiyligi rivojlanmaganligini to‘g‘rilash.

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a’zolarining harakatchanligida kuzatiladigan

<sup>1</sup> Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017.

<sup>2</sup> Logopediya L.S.Volkova, S.I.Shaxovskaya. Izd-vo «Vlados» – M., 2012.



kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

### **Tovushlar talaffuzi ustida ishlash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:**

1 – dizarriya shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshi-ni hisobga olish.

2 – nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi komunikatsiyaning rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

3 – motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo‘lgan buzilishlarini bartaraf etishga intilish, o‘z-o‘zini anglashni, o‘ziga ishonch, o‘zini boshqarish va nazorat qilish, o‘z qadrini bilish hamda o‘z kuchiga ishonish.

4 – differensial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini rivojlantirish.

5 – ko‘rvu-kinestetik tuyg‘uni rivojlantirish yo‘li bilan artikulyatsion tartib va artikulyatsion harakatni kuchaytirish.

– ishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Korreksion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba’zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko‘ra tanlab olinadi, ammo artikulyatsiyaon buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

7—Yeng og‘ir buzilishlarda, ya’ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo‘lganda korreksion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo‘g‘inlardan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo‘lsa va u ayrim so‘zlarda nuqsonli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olsa, unda ish «tayanch» so‘zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

8 – Markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo‘li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

### **Dizarteriyada olib boradigan logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi.**

**1-bosqich** tayyorlov bosqichi – bu bosqichning asosiy maqsadi: artikulyatsion apparatni, artikulyatsion tartibni shakllantirishga tayyorlash;

bolaning ilk yoshida – nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash; – passiv lug‘atni aniqlash va rivojlantirish – nafas va ovozdagi kamchiliklarni korreksiyalash.

Bu bosqichning eng ahamiyatli vazifalari bu – sensor funksiyani, ayniqsa, eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir.

**2-bosqich** boshlang‘ich kommunikativ talaffuz qobiliyatini shakllantirish bosqichi.

<sup>3</sup> Krauze YE.N. Logopediya. Izd-vo «Korone print» – M., 2013.



## XULOSA VA MUNOZARA

Dizartrik bolalarda ovozni rivojlantirish va korreksiyalash uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalilaniladi, bu mashqlar nafas faoliyati, fonotsiya va artikulyatsiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ovoz ustida ishlash artikulyatsion gimnastika va massajdan so‘ng olib boriladi. Bular bilan birga yana bo‘yin muskullarini bo‘shashtiruvchi, boshning har tomonlama harakatini bajarish bo‘yicha maxsus mashqlar, shu mashq bilan bir vaqtning o‘zida i-e-o-u-a unli tovushlarni talaffuz etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ovozni korreksiyalash uchun yumshoq tanglay harakatini faollashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun suv tomchilarini yutish, yo‘talish, esnash imitatsiyalarini bajarish, qattiq atakada «a» unlisini talaffuz etish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Ushbu mashqlar oyna oldida hisob ostida o‘tkaziladi. Quyidagi usullardan foydalilaniladi: tilni orqa qismini qo‘zg‘atish va til yordamida tanglayni taqillatish harakatini bajarish; ixtiyoriy yutish harakatini bajarish; bunda logoped tomizg‘ich bilan halqumning qarshi devoriga suv tomizadi, bu vaqtda bolaning boshi biroz orqaga egilgan bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017.
2. Logopediya L.S.Volkova, S.I.Shaxovskaya. Izd-vo «Vlados» – M., 2012.
3. Golubeva G.G. Korreksiya narusheniy foneticheskoy storoni rechi u doshkolnikov. Izd-vo «Soyuz» – M., 2011.
4. Krauze YE.N. Logopediya. Izd-vo «Korone print» – M., 2013.
5. Mo‘minov L., Ayupova M. Logopediya. – T., 2013.
6. Shermatov, A. A., ugli Yuldashev, S. A., & Kholmatova, Y. N. (2022).

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE LAKOMA-T PREPARATION FOR THE PROPHYLAXIS OF OPHTHALMOGYPERTENSION IN THE PERIOD AFTER ULTRASOUND PHACOEMULSIFICATION (FEC) CATARACT OPERATION IN UNCOMPLICATED CATARACTS. *Oriental Journal of Medicine and Pharmacology*, 2(05), 1-9.

7. Bakhramjon, M., & Khalmuhammedova, T. M. (2023). Influence of Family Lifestyle, Medical-Biological and Socio-Hygienic Factors in the Formation of Children’s Health. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 21-26.
8. Mamatkulov, B. M., Umurzakova, D. A., & Raxmatullayeva, M. K. (2023). Some Aspects of the Development of Osteochondrosis of the Spine. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 15-20.



9. Уразалиева, И., Маматкулов, Б., Тураев, Б., & Рахматуллаева, М. (2022). ДУНЁДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАКАМЛАШТИРИШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙУНАЛИШЛАРИ.
10. Erkin, E., Dilmurod, M., & Navbakhor, K. (2022). MEDICINAL SCHIZOPHYLLUM COMMUNA FR. THE FIRST REPORT OF THE FUNGUS WHICH IS DISTRIBUTED IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN. *Universum: химия и биология*, (11-3 (101)), 13-16.
11. Sh, N. G., Salimova, D. E., & Alisherovich, B. A. (2022). RELATIONSHIP BETWEEN DIABETIC NEPHROPATHY AND CARDIAC DISORDERS IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES. *PEDAGOG*, 1(2), 337-340.
12. Shukhratovna, Negmatova Gulnoza, and Salimova Dildora Erkinovna. "THE ROLE OF GASTROINTESTINAL HORMONES IN THE PATHOLOGY OF THE DIGESTIVE SYSTEM." *PEDAGOG* 1, no. 3 (2022): 408-412.
13. Gafurova, S. S., & Yusuphadjaeva, S. T. (2023). ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOTHERAPY AND PSYCHOPHARMACOTHERAPY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(1), 110-115.
14. Yusuphadjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). METHODS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL PSYCHOTHERAPY IN THE TREATMENT OF RHEUMATOID ARTHRITIS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 701-706.
15. Юсупходжаева, С. Т. (2020). Психоэмоциональные расстройства при ревматоидном артите и методы их психокоррекции. *Журн. Неврология*, (3).
16. Ахмедова, Н. А., & Темирова, М. Б. (2022). Влияние микробиоценоза кишечника на клиническое течение хронического панкреатита и его коррекция (Doctoral dissertation, Ташкент).
17. Касимова, М. Б., Ахмедова, Н. А., Махаматходжаева, Х. Б., Шарапов, З., Худойназаров, А., & Кадирова, Ш. (2022). Erap-1 and il-23r as a leading genetic predictors of development of ankylosing spondyloarthritis.
18. Ахмедова, Н. А., Нурмухamedova, Н. С., & Алиева, К. К. (2022). Ведение больных бронхиальной астмой в сочетании с ишемической болезнью сердца.